



## “ENG GULLAGAN YOSHLIK CHOG’IMDA...”

TALABALIK – OLTIN DAVR, deyishadi. Bu davrning beg‘ubor onlari, bebaho davrlari, sho‘xliklari va o‘ziga yarasha qiyinchiliklari sira xotiradan chiqmaydi.

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti O‘quv teatrida “Teatr san‘ati” fakulteti 1-kurs talabalarining “**TALABALIK QASAMYODI**” katta marosimi bo‘lib o‘tdi.



Tadbir avvalida institut rektori, professor **Ibrohim Yuldashev** soʻzga chiqib, yoshlarni talabalikka qabul qilinganliklari bilan samimiy muborakbod etdilar. Yoshlarga yaratilayotgan turli imkoniyatlar, ijodiy sharoitlar, taʼlim sifatini yanada oshirish borasida qilinayotgan samarali dasturlar borasida soʻzladilar. Soʻngra, marosim anʼanasiga koʻra Oltin kalitni bu yilgi ijodiy imtihonlar davrida eng yuqori ball bilan talabalikka qabul qilingan “Estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi” taʼlim yoʻnalishi talabasi Asror Sadriddinovga topshirildi, barcha 1-kurs talabalari guvohnomani qabul qilishdi hamda shukuhli lahzalar “Talabalik qasamyodi”ni birgalikda baralla aytishdi.



Shundan so'ng, marosimning baliy qismi boshlandi. Unda etyud, pantomima, milliy va zamonaviy raqslar, sahna ko'rinishlari, fokus tomoshasi barchani quvnatib yubordi.



Ijodkor talabalar Firdavs Axtamovning “Ona” she’riy kompozitsiyasi, Maftuna Ahmadaliyevaning “Xayolparast qiz” etyudi, “Qo’g’irchoq teatr aktyorligi” ta’lim yo’nalishi talabalarining qo’g’irchoq raqsi, Doston Valijonov va boshqa do’stlarining plastik harakatlari professional tarzda ijro etildi. Ayniqsa, marosimning final qismida “Estrada aktyorligi” ta’lim yo’nalishi talabasi Obidjon Bekjonovning fokus ijrolari barchani lol qoldirdi. Gitaradagi mayin o’sha qalblarga yaqin “Eng gullagan yoshlik chog’imda” qo’shig’i Hojiakbar Tojiboyev ijrosida go’zal jarang topdi. Mehmonlar sahnada estrada san’atining betakror namunalaridan bahramand bo’lishdi. Fakultet dekani Anvar Qurbonov, professor Isoqtoy Jumanovning say-harakatlari bilan iste’dodli talabalarning namoyish etilgan ijodiy ishlari tinimsiz qarsaklar ostida qoldi.





Barcha talabalarga kelgusi o'qishlarida omadlar tilaymiz!

**Dostonbek RAHMATULLAYEV**  
**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat**  
**instituti matbuot kotibi**